



INTERNATIONAL LEGAL REGULATION OF MAINTENANCE OBLIGATIONS: THEORY AND PRACTICE

Gavkhar Kholikova

Doctoral student, University of World Economy and Diplomacy

gavharkholikova@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Maintenance obligations, private international law, international legal regulation, Hague Convention, child support, family law, enforcement mechanisms.

Received: 25.09.25

Accepted: 26.09.25

Published: 27.09.25

Abstract: This article examines the international legal regulation of maintenance obligations from both theoretical and practical perspectives. Special emphasis is placed on the 2007 Hague Convention on the International Recovery of Child Support and Other Forms of Family Maintenance. The paper discusses the main provisions of the Convention, its scope of application, its interaction with national legislation, and its significance for ensuring the effective enforcement of maintenance obligations. Additionally, challenges in the practical implementation of the Convention's norms and possible solutions are highlighted.

ALIMENT MAJBURIYATLARINING XALQARO-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Gavhar Xoliqova

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti

gavharkholikova@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Aliment majburiyatlari, xalqaro xususiy huquq, xalqaro huquqiy tartibga solish, Gaaga konvensiyasi, bola uchun aliment, oilaviy huquq, ijro mexanizmlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada aliment majburiyatlarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Ayniqsa, 2007-yilda qabul qilingan "Bola uchun aliment undirish va oila a'zolarining boshqa shakldagi ta'minoti to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasi alohida ilmiy tahlil qilinadi. Konvensiyaning asosiy qoidalari, uning qo'llanish sohasi, milliy qonunchilik bilan o'zaro uyg'unlashuvi hamda aliment majburiyatlarini samarali hal etishdagi

ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, konvensiya normalarini amaliyotda qo'llashda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llariga e'tibor qaratiladi.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ АЛИМЕНТНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Холикова Гавхар

Докторант Университета мировой экономики и дипломатии

gavharkholiqova@gmail.com

Ташкент, Ўзбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Алиментные обязательства, международное частное право, международное правовое регулирование, Гагская конвенция, алименты на детей, семейное право, механизмы исполнения.

Аннотация: В статье анализируется международно-правовое регулирование алиментных обязательств с точки зрения теории и практики. Особое внимание уделено Гагской конвенции 2007 года «О международном порядке взыскания алиментов на детей и иных форм содержания семьи». Рассматриваются основные положения конвенции, сфера её применения, взаимосвязь с национальным законодательством, а также значение в обеспечении эффективного исполнения алиментных обязательств. Кроме того, освещаются проблемы практического применения норм конвенции и пути их решения.

Aliment majburiyatlari oilaviy huquqning eng muhim institutlaridan biri bo'lib, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bolalar va boshqa qaramog'ida bo'lgan shaxslarning moddiy ta'minoti davlat ichki qonunchiligi bilan bir qatorda xalqaro huquq normalarida ham mustahkamlangan. Ayniqsa, chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlarida qo'llaniladigan huquqni aniqlash, da'volarni ko'rib chiqish va ijro jarayonlarini samarali tashkil etish masalalari xalqaro xususiy huquqda alohida e'tiborga loyiqdir.

2007-yilda qabul qilingan "Bola uchun aliment undirish va oila a'zolarining boshqa shakldagi ta'minoti to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasi mazkur sohada tub burilish yasadi. Ushbu hujjat aliment majburiyatlarini xalqaro miqyosda samarali hal etish, davlatlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish va ta'minot huquqini amalga oshirishni kafolatlashga qaratilgan. Konvensiya aliment undirish tartibini aniq belgilab berishi, ijro mexanizmlarini takomillashtirishi va xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi bilan ahamiyatlidir.

2007-yildagi Gaaga Konvensiyasining maqsadi uning 1-moddasida ko'rsatilgan. Unga ko'ra konvensiyaning maqsadi, ishtirokchi davlatlarning idoralari o'rtasida keng qamrovli hamkorlik

tizimini o'rnatish, ishtirokchi davlatlarda aliment to'g'risidagi qarorlarning qabul qilinishi va bu qarorlarni o'zgartirish bo'yicha qulay amaliyotlar yaratish, aliment to'g'risidagi qarorlarning ishtirokchi davlatlarda tez va sodd tartibda tan olinishi va ijro etilishini ta'minlash hamda aliment to'g'risidagi qarorlarni tezkor ijro etish uchun samaralichoralar ko'rish orqali, bolalar alimentlari va oilaviy alimentning boshqa turlarini samarali xalqaro undiruvini ta'minlashdir.

Konvensiyaning 1-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish va shu bilan birga Konvensiyaga ko'proq davlatlar a'zo bo'lishi, xalqaro miqyosda ko'proq e'tirof etilishi uchun ahdlashuvchi davlatlarga juda ko'p qulayliklar taqdim etilgan. Shartnomada, masalan, protsessual harakatlarda qo'llaniladigan til (44-m), standart shakllar (12/2-m; 11/4-m), ahdlashuvchi davlatlarning nafaqa to'g'risidagi qonuniy hujjatlari haqida ma'lumot berishi (m. 57) kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, nafaqa to'g'risidagi boshqa konvensiyalardagi sekin va qimmat tizimning salbiy ta'sirini bartaraf etish uchun yangi axborot texnologiyalarini qo'llash taklif etilmoqda va bu borada ahdlashuvchi davlatlar rag'batlantirilmoqda. Konvensiyaning barcha bu jihatlari bilan, Gaaga Konvensiyalari va 1956-yilgi Nyu-York Konvensiyasining hamda boshqa xalqaro shartnomalarning eng maqbul qoidalarini o'z ichiga olishga intilayotgani aytish mumkin.

2007-yildagi Gaaga undirish konvensiyasi, alimentlar to'g'risidagi boshqa xalqaro shartnomalardan farqli ravishda, aralash usulda tayyorlangan; Konvensiya uchun ham klassik xalqaro xususiy huquq vositalari, ham xalqaro huquqda qo'llaniladigan xalqaro sud va ma'muriy hamkorlik usuli ishlatilgan. 2007-yildagi Gaaga undirish konvensiyasi, asosan bolalar nafaqasi, shuningdek, er-xotinlar nafaqasi va boshqa nafaqa turlarining chet ellarda undirilishini osonlashtirish maqsadida tuzilgan. Gaaga undirish konvensiyasi, 1956-yilgi Nyu-York konvensiyasidan farqli o'laroq, nafaqat aliment qarzdorliklarini undirish, balki alimentlar bo'yicha qarorlarni tan olish va ijro etish tartiblarini ham o'z ichiga oladi.

Konvensiyaning 2-moddasiga ko'ra, Konvensiya doirasida uch turdagi nafaqa bo'lishi mumkin. Bular bolalar nafaqasi, er-xotin nafaqasi hamda bolalar va er-xotin nafaqasidan tashqari boshqa turdagi nafaqalardir. Quyida ushbu nafaqalarning Konvensiya doirasida qanday o'rin egallashini ko'rib chiqamiz.

Bolalar nafaqasi.

Shartnoma doirasida ko'zda tutilgan nafaqalarning boshida, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan, 21 yoshdan kichiklarga mo'ljallangan bolalar nafaqasi turadi (m. 2/1-a). Biroq, ahdlashuvchi davlatlar e'tiroz bildirib Shartnomani qo'llash uchun yosh chegarasini 18 yoshgacha tushirishi mumkin (m. 2/2). Davlatlar tomonidan qo'yilgan bola yoshiga oid e'tiroz, ba'zi mualliflar tomonidan shaxsga nisbatan e'tiroz (*rationa personae*) sifatida ifodalanadi. Agar ahdlashuvchi davlat mazkur e'tirozni qo'ygan bo'lsa, 2007 yilgi Shartnoma 18 va 21 yosh oralig'idagi shaxslarga hech qanday tarzda qo'llanilmaydi. Bundan tashqari, bu

e'tirozni qo'ygan ahdlashuvchi davlat, e'tiroz bilan istisno qilingan ushbu yoshdagi shaxslarga Shartnomaning qo'llanilishini talab qila olmaydi.

Shartnomada bolalar nafaqasini belgilashda "ota-ona-bola munosabatlaridan kelib chiqadigan aliment majburiyatlari" hisobga olingan. Konvensiya qoidolari bolalarning ota-onalarining fuqarolik holatiga qaramasdan qo'llaniladi (m. 2/4). Shunday qilib, boshqa Gaaga Konvensiyalarida bo'lgani kabi, Konvensiyani qo'llash uchun bolaning nikohda tug'ilganlik sharti talab qilinmaydi.

Turmush o'rtog'i nafaqasi.

Shartnomada turmush o'rtog'i nafaqasi m. 2/1-b va c da tartibga solingan. Modda tartibga solinayotganda turmush o'rtog'i nafaqasi ikki xil toifaga bo'lingan. Birinchi toifa, bolalar nafaqasi uchun murojaat qilinganda turmush o'rtog'i nafaqasiga oid qarorni tan olish yoki ijroga qaratish holatidir. Turmush o'rtog'iga nafaqa majburiyatini tan olish va ijro etish to'g'risidagi talablar bolalar nafaqasi bilan birga ilgari surilganda, u Konvensiya doirasida bo'ladi va Konvensiyaning barcha bo'limlari ularga nisbatan qo'llanilishi mumkin (m. 2/1-b)

Boshqa toifa esa bolalar nafaqasisiz faqat turmush o'rtog'i nafaqasi talabini ilgari surishdir. Agar talab faqat turmush o'rtog'i nafaqasi bo'lsa, turmush o'rtog'iga nafaqa to'lash majburiyati to'g'risidagi talablar Konvensiyaning majburiy doirasiga kiradi; ammo ma'muriy hamkorlik va markaziy organlar orqali murojaat qilish qoidalarini o'z ichiga olgan Konvensiyaning Ikkinchi va Uchinchi Bo'limlari bu talablarga nisbatan qo'llanilmaydi (m. 2/1-c).

Demak, bola nafaqasi bilan birga ariza berilgan turmush o'rtoq nafaqasiga oid qarorni tan olish va ijro etish markaziy organlar orqali talab qilinishi mumkin; faqat turmush o'rtoq nafaqasi arizasida esa markaziy organlardan foydalanmasdan, to'g'ridan-to'g'ri so'ralayotgan davlatning vakolatli organiga murojaat qilinadi.

Nafaqaning boshqa turlari.

Bolalar nafaqasi va turmush o'rtog'i nafaqasidan tashqari qolgan nafaqaning boshqa turlari Konvensiyaning majburiy ta'sir doirasiga kirmaydi. Shunday qilib, aka-ukalar o'rtasidagi nafaqalar, ota-onaning farzandlaridan talab qilgan nafaqalari hamda yonaki yoki qayin qarindoshlikdan kelib chiqqan nafaqalar Konvensiyaning majburiy ta'sir doirasiga kirmaydi. Biroq, ahdlashuvchi davlatlar Konvensiya 2-moddasining uchinchi bandiga muvofiq bayonot bilan Konvensiyaning qo'llanish doirasini kengaytirishlari hamda boshqa nafaqa turlarini ham Konvensiyaga kiritishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Konvensiyaning 2-moddasiga ko'ra, nafaqaning uch turi mavjud deyish mumkin. Bulardan bola nafaqasi va (Konvensiyaning II va III bo'limlari qo'llanilmagan holda) er-xotin nafaqasi, Konvensiyaning majburiy qamroviga kiradi. Shuning uchun, bola nafaqasi va er-xotin nafaqasidan tashqari boshqa nafaqa turlari (aka-ukalar o'rtasidagi nafaqalar,

ota-onaning farzandlaridan talab qiladigan nafaqalari hamda yonlama qarindoshlik va qayin qarindoshlikdan kelib chiqadigan nafaqalar) qoida tariqasida Konvensiya doirasiga kirmaydi. Bu nafaqalarning Konvensiya doirasiga kirishi va kamida ikki ahdlashuvchi davlat o'rtasida majburiyat tug'dirishi uchun, mazkur davlatlar bir xil nafaqa majburiyatlari va Konvensiyaning aynan bir xil bo'limlarini qamrab olgan holda bayonot berishlari kerak.

Chet elementi bilan murakkablashgan aliment masalalarini xalqaro tartibga solishda yana bir muhim jihat ma'muriy hamkorlik tizimidir. Bundan maqsad bolalar nafaqasi va boshqa oilaviy nafaqa turlarining samarali xalqaro undirilishini ta'minlashdir. 2007-yildagi Gaaga Konvensiyasi nafaqaning xalqaro undirilishini ta'minlash uchun shartnomachi davlatlarning markaziy organlari o'rtasida keng qamrovli hamkorlik tizimi nazarda tutilgan. Xususan, aliment to'lovlarini undirish va tezkor o'tkazishni osonlashtirish, zarur hollarda nafaqa undirish uchun nasl-nasabni o'rnatishga yordam ko'rsatish kabi markaziy organlarning maxsus vazifalari mavjud.

Ma'muriy hamkorlik Konvensiyaning muhim e'tibor markazlaridan birini tashkil etadi. Konvensiya doirasida ma'muriy hamkorlik markaziy organlar orqali amalga oshiriladi va har bir shartnomachi davlatdan markaziy organ tashkil etish talab qilinadi.

Nafaqalarni undirishga oid xalqaro konvensiyalarda eng ko'p muammo tug'diradigan masala, ariza berish jarayonlarining oylab, hatto yillab cho'zilishi mumkinligidir. Ushbu kechikishlar bir qator sabablarga asoslanadi. Shu munosabat bilan, so'ralayotgan davlatda nafaqa to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiquvchi organlarning ish yuki tufayli kech qaror qabul qilishlari, shuningdek, mazkur jarayonlar bo'yicha nima qilish kerakligi haqida ishonchsizliklari, vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladigan jarayonlarga oid talablarning mamlakatdan mamlakatga farq qilishi va shu sababli zaruriy hujjatlarda kelishmovchiliklar yuzaga kelishi, hujjatlarni tarjima qilishda duch kelinayotgan muammolar asosiy o'rin tutadi.

2007 yilgi Gaaga konvensiyasi nafaqa ishlarida endi surunkali tus olgan kechikish muammosiga nisbatan yaxshilanishlar kiritdi. Konvensiyada, so'rovchi davlatdagi kreditorning nafaqani eng oson yo'l bilan undirishi maqsadida turli ariza berish imkoniyatlari, Konvensiya doirasidagi arizaga kiritilishi lozim bo'lgan batafsil ma'lumotlar, markaziy organ majburiy tarzda kuzatib borishi kerak bo'lgan arizalar va ishlarni yuborish, qabul qilish, ko'rib chiqishga oid qoidalar o'rin olgan.

Ma'muriy hamkorlik tizimi doirasida, Konvensiyaning 4-moddasining birinchi bandiga ko'ra, har bir a'zo davlat Konvensiya tomonidan berilgan vazifalarni bajarish uchun bittadan markaziy organ tayinlashi majburiydir. 1956-yilgi Nyu-York konvensiyasida ijro etuvchi organlar sifatida yuboruvchi organ va vositachi tashkilotlar mavjud edi. 2007-yilgi Gaaga konvensiyasi, aliment to'g'risidagi jarayonlarni yagona tizim ostida amalga oshirish uchun, Nyu-York konvensiyasidagi kabi yuboruvchi organ va vositachi tashkilotlar o'rniga, so'nggi davr Gaaga

konvensiyalarida tez-tez uchraydigan markaziy organlar tizimini qabul qilgan. Markaziy organlar a'zo davlatlar tomonidan belgilangan davlat organlaridir. Ularning maqsadi ma'muriy hamkorlik vazifalarini bajarish va Konvensiya doirasida tomonlarga yordam ko'rsatishdir.

Konvensiya, arizalarni tez hal qilish va jarayonlarda samaradorlikni oshirish maqsadida "Markaziy organ" modelini qabul qilgan. Konvensiyada markaziy organlarning vazifalari umumiy va maxsus vazifalar tarzida ikkiga bo'linib, turli moddalar shaklida tartibga solingan. Konvensiyaning 5-moddasiga ko'ra, markaziy organlarning umumiy vazifasi ahdlashuvchi davlatlar o'rtasida hamkorlik qilish va boshqa ahdlashuvchi davlatlardagi markaziy organlarni Konvensiyani qo'llashga rag'batlantirishdir. Shuningdek, markaziy organlar Konvensiyani qo'llash natijasida yuzaga keladigan muammolarni iloji boricha yechim topishga harakat qilishadi.

Markaziy organlarning maxsus vazifalari esa Konvensiyaning 6-moddasida belgilangan. Markaziy organlarning maxsus vazifalari o'z ichida ikkiga bo'linadi. Ulardan birinchisi, markaziy organning arizalarni qabul qilish, yuborish, protsessual harakatlarni boshlash va arizalar bo'yicha yordam ko'rsatish majburiyatidir. Yordam ko'rsatish majburiyatiga oid markaziy organning ushbu vazifalari asosiy va maxsus xususiyatga ega vazifalardir. Mazkur vazifalar qat'iy bajarilishi shart.

Markaziy organlarning maxsus vazifalariga oid ikkinchi qism, xuddi shu moddaning ikkinchi qismida belgilangan. Markaziy organlardan, yuqorida tushuntirilgan maxsus vazifalarni bajarish maqsadida "barcha tegishli"gi qarorlari qabul qilinishi kutilmoqda. Turkiyada Konvensiya kuchga kirmagan davrda markaziy organlar, aliment to'g'risidagi qarorni ichki qonunchilikka muvofiq tan olish va ijro etish shartlariga mos kelmasligi yoki qarzdorning iqtisodiy ahvoli ijro jarayonining natijasiz qolishini ko'rsatsa, ijro jarayonini umuman boshlamasdi. Biroq 2007 yilgi Gaaga konvensiyasi tan olish va ijro etish jarayonida markaziy organlarning vakolatlarini qayta ko'rib chiqib, murojaatlarni ro'yxatga olib darhol ijro organiga yuborish majburiyatini yukladi. Shu bois, bu borada markaziy organlarga vositachilik, kelishuv kabi shuningdek, muqobil usullarni rag'batlantirish vazifasini ham yuklagan.

2007-yilgi Konvensiya, a'zo davlatlardagi markaziy organlarning hamkorligiga asoslangan kamxarj va samarali tizimni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat sifatida qabul qilgan. Shu bilan birga, ariza beruvchining markaziy organlar vositachiligiga murojaat qilmasdan, so'rov yuborilayotgan davlat sudlariga yoki vakolatli organga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish yo'li (m.37) ham mavjud. Shunday qilib, Konvensiya doirasida markaziy organlar orqali berilgan ariza bilan so'rov yuborilayotgan davlatning vakolatli organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish yo'li bo'lgan ikki xil murojaat yo'lining mavjudligi haqida gapirish mumkin.

Konvensiyaga muvofiq, alimentlarni undirish bo'yicha ko'zlangan qulaylik, past narx va samaradorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan asosiy murojaat yo'li, aliment undirish maqsadida beriladigan arizalar va jarayonlarning markaziy hokimiyat organlari orqali amalga oshiriladi. Bu

yo'lga ko'ra, alimentga oid iltimosnoma, da'vogar shaxsning yashash joyi bo'yicha a'zo davlatning markaziy organi orqali so'rov yuborilayotgan a'zo davlatning markaziy organiga yuboriladi (m. 9). Nafaqa oluvchi o'zi yashab turgan a'zo davlatning markaziy organiga murojaat qilib, o'z talabini bildiradi. Nafaqa oluvchining yashash joyi bo'lgan a'zo davlatning markaziy organi arizani qabul qilib, qarzdor u joylashgan okit davlatning markaziy idorasiga yetkazadi.

Markaziy organlar orqali murojaat qilish uchun arizaning Konvensiyaning 10-moddasi doirasiga kirishi talab etiladi. Aliment undirishni xohlovchi nafaqa oluvchi, so'rov yuborilayotgan davlatda: a) qarorni tan olish yoki tan olish va ijro etish, b) so'rov yuborilayotgan davlatda qabul qilingan yoki e'tirof etilgan qarorning ijrosini, v) shu jumladan nasl-nasabini aniqlash zarur bo'lgan hollarda, hech qanday mavjud qaror bo'lmagan holatlarda, so'rov yuborilayotgan davlatda qaror chiqarilishi, d) so'rov yuborilayotgan davlatda qarorning tan olinishi va ijro etilishi, 20-modda bo'yicha tan olish va ijro etishning mohiyatiga oid kamchilik yoki 22-moddaning b va e bandlarida ko'rsatilgan sabablar tufayli mumkin bo'lmasa yoki rad etilgan bo'lsa, mazkur so'rov yuborilayotgan davlatda yangi qaror chiqarilishi, e) so'rov yuborilayotgan davlatda chiqarilgan qarorni o'zgartirish yoki f) so'rov yuborilayotgan davlatdan tashqaridagi boshqa davlatda chiqarilgan qarorni o'zgartirish to'g'risidagi arizalar bilan murojaat qilishi mumkin (m. 10/1).

Shu bilan birga, da'vogar davlatda o'ziga nisbatan aliment to'lash haqida qaror chiqarilgan qarzdor esa: a) so'rov yuborilayotgan davlatda oldingi qarorning ijrosini to'xtatish yoki cheklashga olib keladigan qaror yoki ekvivalent hujjatni tan olish, b) so'rov yuborilayotgan davlatda chiqarilgan qarorni o'zgartirish, v) so'rov yuborilayotgan davlatdan tashqaridagi boshqa davlatda chiqarilgan qarorni o'zgartirish to'g'risidagi arizalar bilan murojaat qilishi mumkin (m. 10/2). Qarzdor nuqtai nazaridan, Konvensiyaning 10-moddasiga muvofiq arizaberishi kreditorga nisbatan cheklangan sabablarga bog'liq bo'lib qolmoqda.

1. Arizani ko'rib chiqish

Ariza beruvchi o'zi yashaydigan mamlakatdagi markaziy organga 11-moddada ko'rsatilgan ma'lumotlar va hujjatlar bilan murojaat qiladi. Ariza beruvchi yashaydigan mamlakatdagi markaziy organ o'ziga berilgan arizadagi barcha zarur ma'lumotlar va hujjatlarning mavjudligini tekshiradi va agar kamchiliklar bo'lsa, ularni to'ldirish uchun ariza beruvchiga yordam ko'rsatadi (12/1-modda). Talab qiluvchi davlatning markaziy organi ariza Konvensiya qoidalariga muvofiq degan xulosaga kelsa, arizani ariza beruvchi nomidan talab qilinayotgan davlatning markaziy organiga yuboradi. Talab qilingan davlatning markaziy organi bolaning moddiy ahvoli to'g'risidagi hujjatni, qarorning to'liq matnini, qarorning ijro etilishi mumkinligi to'g'risidagi hujjatni, to'lanmagan qarz miqdorini ko'rsatuvchi hujjatni va aliment to'g'risidagi kelishuvning to'liq matni hamda muayyan aliment kelishuvi kelib chiqish davlatida qaror sifatida ijro etilishi mumkinligini ko'rsatuvchi hujjatlarning kelib chiqish davlatining vakolatli organi tomonidan

tasdiqlangan to'liq nusxasini talab qiluvchi davlatning markaziy organidan so'rashi mumkin (12/2-moddada).

2. Xizmatlar va ariza berish tartib-qoidalaridan samarali foydalanish hamda bepul yuridik yordam.

Konvensiyada taqdim etiladigan xizmatlar va ariza berish usullaridan samarali foydalanish huquqi 2007-yilgi Konvensiyaning asosiy prinsipi hisoblanadi. Konvensiyaning 14-moddasida nazarda tutilgan harakatlar ma'muriy yoki sud harakatlari bo'lishi mumkin. Konvensiyani tayyorlash maqsadlari qatorida ta'kidlanganidek, aliment kreditorlari odatda moddiy imkoniyati cheklangan shaxslar bo'lganligi sababli ariza berish xarajatlari kreditorlarning Konvensiyadan foydalanishiga to'sqinlik qilmasligi muhim masaladir. Shu sababli Konvensiyada, bolaga nisbatan aliment majburiyatiga oid arizalar, xususan, xizmatlar va ariza berish tartib-qoidalaridan samarali foydalanish huquqi hamda bepul yuridik yordam olish huquqini ta'minlovchi tizim joriy etilgan (14-17-moddalar).

A'zo davlatlar markaziy organlar orqali amalga oshiriladigan aliment arizalari va aliment undirish bo'yicha harakatlarga ariza beruvchilarning samarali kirishini ta'minlashi shart (14/1-moddada). Mazkur samarali kirishni ta'minlash uchun so'ralayotgan davlatning ariza beruvchiga bepul yuridik yordam ko'rsatishi nazarda tutilgan (14/2-moddada). Konvensiya doirasida ariza beruvchiga yuridik yordam ko'rsatishning sababi, moliyaviy masalalarning murojaat qilishga to'siq bo'lishini bartaraf etishdir. Bepul yuridik yordam so'ralayotgan a'zo davlatda ko'rilayotgan ekvivalent milliy ishlar bo'yicha nazarda tutilganidan kam bo'lmasligi kerak (14/4-moddada). Konvensiya doirasidagi da'vo yoki arizaga oid xarajatlar va to'lovlar uchun hech qanday qimmatli qog'oz, veksel yoki depozit, qanday ta'riflangan bo'lishidan qat'i nazar, garov sifatida talab qilinishi mumkin emas (14/5-moddada).

Konvensiyaga ko'ra, bolaga (21 yoshdan kichiklariga) nisbatan ota-ona- bola munosabatlaridan kelib chiqadigan aliment majburiyatlari bo'yicha markaziy organlar orqali berilgan arizalarda aliment undiruvchiga so'ralayotgan davlat tomonidan bepul yuridik yordam ko'rsatiladi (15/1-moddada). Moddada barcha murojaatlar haqida so'z yuritilganligi sababli, ushbu qoida aliment to'g'risidagi qarorning chiqarilishi va aliment haqidagi qarorni tan olish hamda ijro etish bo'yicha murojaatlarda ham amal qiladi. Biroq so'ralayotgan davlat (10/1/a va b-bandlaridagi arizalar hamda 20/4-moddada ko'rsatilgan ishlar bundan mustasno) ariza yoki apellyatsiya shikoyati asoslantirilgan sababning ochiqdan-ochiq asossiz ekanligi xulosasiga kelsa, bepul yuridik yordam so'rovini rad etishi mumkin (15/2-moddada).

D. Bevosita murojaatlar 2007-yilgi Konvensiyaning 37-moddasida arizachi markaziy organlar vositachiligiga murojaat qilmasdan, so'ralayotgan davlatning vakolatlimorganiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish shaklida yuzaga keladigan yo'l ham qabul qilingan. Vakolatli

organidan maqsad, so'ralayotgan davlatda mavjud bo'lgan va shu davlat tomonidan vakolat berilgan sud, ma'muriy organ yoki boshqa davlat muassasalaridir.

Quyida batafsil ko'rib chiqiladigan chet el nafaqasi qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Konvensiyaning tegishli qoidalari, nafaqat markaziy organlar orqali tan olish va ijro etish talabini ilgari surishda, balki 37-moddaga muvofiq talab qilingan davlatning vakolatli organiga bevosita tan olish va ijro etish to'g'risidagi talabni ilgari surishda ham qo'llaniladi.(m. 19/5). Biroq, ahdlashuvchi davlatdagi vakolatli organga bevosita beriladigan tan olish va ijro etish talablarida, Konvensiyaning asosiy tamoyili bo'lgan sud yoki ma'muriy jarayonlarga samarali kirishni ta'minlash to'g'risidagi qoidalar hamda huquqiy yordam to'g'risidagi qoidalarining faqat bir qismi qo'llanilishi mumkin (m. 37/2).

Biroq Konvensiyaning 37-moddasi uchinchi bandida juda cheklangan sharoitlarda bo'lsa-da, himoyaga muhtoj shaxslarga nafaqa majburiyati bo'yicha qamrovi kengaytirilmoqda. Bu kengaytirish faqat quyidagi holatlarda amalga oshirilishi mumkin:

- Himoyaga muhtoj shaxs foydasiga chiqarilgan nafaqa qarorini tan olish va ijro etish uchun bevosita ariza berilganda,

- Kelib chiqish davlatidagi nafaqa qarori, himoyaga muhtoj shaxsning, Konvensiyaning 2-moddasi 1-bandining (a) kichik bandiga ko'ra (21 yoshga to'lmagan) bola bo'lgan davrida chiqarilgan bo'lsa

- Kelib chiqish davlatidagi nafaqa qarori, himoyaga muhtoj shaxsning, 21 yoshdan so'ng, kasallik yoki jismoniy zaiflik tufayli parvarishini ta'minlash uchun chiqarilgan bo'lsa.

Doktrinada, Konvensiyaning 37-moddasi 3-bandi, himoyaga muhtoj voyaga yetgan shaxslar uchun juda cheklangan himoyani ta'minlashi sababli tanqid qilinmoqda. Yordamga muhtoj katta yoshli shaxslarning Konvensiya doirasida keng ko'lamli yordamdan foydalanishlari bo'yicha kelishuvga erishilmagan bo'lsa-da, ushbu masala tavsiya xususiyatiga ega qarorlar bilan hal etishga harakat qilingan.

Aliment majburiyatlarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi bugungi globallashuv jarayonida dolzarb masalalardan biridir. Xususan, 2007-yilgi "Bola uchun aliment undirish va oilaviy ta'minotning boshqa shakllarini xalqaro miqyosda ta'minlash to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasi ushbu sohada asosiy xalqaro hujjatlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Konvensiya aliment majburiyatlarini transmilliy darajada ijro etish, davlatlar o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish hamda fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, nazariy manbalar va amaliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, aliment majburiyatlari bo'yicha xalqaro-huquqiy normalar milliy qonunchilikni takomillashtirishga ham

xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro huquqiy mexanizmlarning to'laqonli ishlashi uchun davlatlarning konvensiya qoidalarini o'z huquq tizimiga moslashtirishi ham muhimdir.

Umuman olganda, aliment majburiyatlarining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi nazariya va amaliyot birligida samarali rivojlanib bormoqda hamda inson huquqlarini, xususan bolalar manfaatlarini ishonchli himoya qilishning muhim kafolatlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hague Conference on Private International Law (HCCH). (2007). Convention on the International Recovery of Child Support and Other Forms of Family Maintenance (The Hague, 23 November 2007). Retrieved from <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=131>

2. Hague Conference on Private International Law (HCCH). (1973). Convention on the Recognition and Enforcement of Decisions Relating to Maintenance Obligations (The Hague, 2 October 1973). Retrieved from <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=86>

3. United Nations. (1956). Convention on the Recovery Abroad of Maintenance (New York, 20 June 1956).

Retrieved from https://treaties.un.org/pages/ViewDetails.aspx?src=IND&mtdsg_no=XVI-1&chapter=16

4. Borrás, A. (2010). The necessary flexibility in the application of the new instruments on maintenance. In K. Boele-Woelki, T. Einhorn, D. Girsberger, & S. Symeonides (Eds.), *Convergence and divergence in private international law: Liber amicorum Kurt Siehr* (p. 184). The Hague: Schulthess Eleven International Publishing.

5. Carlson, M. H. (2009). United States perspective on the new Hague Convention on the international recovery of child support and other forms of family maintenance. *Family Law Quarterly*, 43(1), 31.

6. Estin, A. L. (2010). Families across borders: The Hague children's conventions and the case for international family law in the United States. *Florida Law Review*, 62(1), 49.

Duncan, W. (n.d.). The new Hague child support convention (pp. 6–7).

Tanribilir, E. (n.d.). International child support and maintenance obligations (p. 115).

7. Hirsch, J. (2008). Neues Haager Unterhaltsübereinkommen - Erleichterte Geltendmachung und Durchsetzung von Unterhaltsansprüchen über Ländergrenzen hinweg. *Der Familien-Rechts-Berater International (FamRB Int.)*, 3, 70–74.